

DAVLATNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Usmonov Murodbek Dusmurot o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası assistent-stajyori

e-mail: usmonov.murodbek95@gmail.com

Tel: +998 937220855

Rashidov Ziyodullo Ibragimovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

ziyodullorashidov29@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish omillari PEST tahlili asosida chuqur o'rganilgan. Tahlil jarayonida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik determinantlarning tashqi savdo jarayonlariga ta'siri baholandi hamda davlat tomonidan so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish, importni optimallashtirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va global iqtisodiyot bilan integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport diversifikatsiyasi, tashqi savdo siyosati, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy integratsiya, siyosiy barqarorlik.

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining globallashtirish jarayonlariga faol integratsiyalashuvi mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini chuqur isloh qilish zaruratini vujudga keltirmoqda. Jahon bozoridagi raqobatning kuchayishi, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining jadallashtirish va tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayib borishi respublikada tashqi savdoni tartibga soluvchi mexanizmlarni takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida shakllangan yangi iqtisodiy realiyalar O'zbekiston uchun eksport diversifikatsiyasi, importni optimallashtirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashning dolzarbligini yanada oshirdi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakat iqtisodiy o'sishi, investitsion muhitning jozibadorligi va xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi kunda O'zbekistonning iqtisodiy islohotlar paketi aynan tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish, savdo to'siqlarini kamaytirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga qaratilgan. Shu bois mazkur mavzuni chuqur

ilmiy tahlil qilish davlat siyosati va bozor mexanizmlarining uyg'unlashuvini o'rganish nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tashqi iqtisodiy faoliyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillar bilan o'zaro bog'liqligi PEST yondashuvi orqali tizimli o'rganilganda, O'zbekistonning global iqtisodiy tizimdagi o'rni va istiqbol imkoniyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Ilmiy tahlil davlatning tashqi savdo strategiyasida mavjud muammolar, imkoniyatlar va rivojlanish drayverlarini aniqlash imkonini berib, iqtisodiy siyosatni rejalashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, raqobatbardosh eksport modelini yaratish va mintaqaviy integratsiyadan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni taklif qiladi.

Kirish qismi uchun muhim jihatlardan yana biri shundaki, O'zbekistonda so'nggi yillarda tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2021-yil 2-fevraldagi PF-6155-son Farmon "O'zbekiston Respublikasining 2021–2023-yillarga mo'ljallangan Investitsiya va tashqi savdo strategiyasi" mazkur yo'nalishning institutsional asoslarini mustahkamlab, eksportni qo'llab-quvvatlash, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi ustuvor vazifalarni belgilab berdi [1]. Ushbu hujjat tashqi iqtisodiy siyosatning yangi bosqichini boshlab bergani bilan tadqiqot mavzusining zaruratini yanada kuchaytiradi.

Adabiyotlar sharhi

Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ko'plab olimlar tadqiqot olib borgan. Jumladan, O.Shodiyev o'zining "Development of the foreign economic activity of the republic of uzbekistan with the help of foreign investments" nomli maqolasida O'zbekistonning 1991-yilda mustaqillikka erishganidan beri iqtisodiy liberallashtirish va global iqtisodiyotga integratsiyalashuv siyosatini faol ravishda amalga oshirib kelayotganini yoritib bergan. Shu bilan birga bu jarayonning asosiy omillaridan biri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'lib, bu mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynashini aytgan. Shuningdek, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini xorijiy investitsiyalar orqali rivojlantirish, mamlakat yutuqlariga e'tibor qaratish ko'rib chiqilgan [2].

N.T.Talipova hamda boshqa olimlar tomonidan yozilgan "Evolution of Innovative Development of Foreign Economic Activity of the Republic of Uzbekistan" nomli maqolada olimlar O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirishning asosiy bosqichlari ko'rib chiqqanlar, rivojlanishning hozirgi bosqichida yangi siyosatni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi va har bir yakunlangan bosqichning kuchli va zaif tomonlari tavsiflanadi. Shu maqsadda, tashqi iqtisodiy faoliyatni rejalashtirish sohasidagi yetakchi nazariy maktablar va tendentsiyalarni tadqiq qilishdagi asosiy qoidalarga umumiy nuqtai nazar va umumlashtirish, bu

jarayonni mezzo va makro darajalarda strategik boshqarish mantig'i va bosqichlari taqdim etgan [3].

M.F. Isayev va O.A. Torishniylar tomonidan tadqiq qilingan “State regulation of foreign economic activity and its impact on the economic development of the region” nomli maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatning mohiyati, mazmuni va turlari ko'rib chiqiladi. Unda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish masalalari o'rganiladi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, u Rossiya mintaqalarining tashqi iqtisodiy faoliyatining ularning ichki iqtisodiy muhiti bilan o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqligini o'rganadi, bu ularning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining ko'lamini va samarali ishlatilishiga bog'liq. Unda mintaqaviy tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish usullari tasvirlangan. Umuman olganda, maqolada davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirish mintaqalarda tashqi iqtisodiy faoliyatning sezilarli darajada oshirishini ta'minlaydi, degan xulosaga kelish mumkin, chunki bu tashqi iqtisodiy faoliyatning turli sohalarini, xususan, deyarli barcha mamlakatlarda tarixan notekis o'sib kelgan tashqi savdo va investitsiyalar kabi asosiy segmentlarni mutanosib va muvozanatli rivojlantirishga yordam beradi deb keltirgan [4].

J.G'. Saidmusayev tomonidan yozilgan “Tashqi iqtisodiy faoliyat tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish” nomli maqolada ichki bozorni himoya qilish davlatning iqtisodiyotga ta'sirining eng muhim sohalaridan biri ekanligi aytiladi. Shuningdek, O'zbekistonning mudofaa qobiliyati bilan bir qatorda tovarlarning raqobatbardoshligiga ega bo'lish shartligi, ushbu maqsadga erishish uchun mamlakat ichida kuchli sanoat bazasini yaratish, huquqiy infratuzilmani vujudga keltirish, xorijiy davlatlar iqtisodiyoti bilan mustahkam huquqiy aloqalarni o'rnatish, sanoatning samarali sohalarini xorijiy kompaniyalarning insofsiz raqobatidan himoya qilish talab etishini aytib o'tgan [5].

Shuningdek, N.B. Yahyoxonov, “Tashqi iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etishning ahamiyati” nomli maqolasidada tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etishning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati yoritib bergan. TIF mamlakatning eksport va import salohiyatini kengaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va chet el investitsiyalarini jalb etishda muhim omil sifatida keltirgan. Shuningdek, tashqi savdoni tashkil etish, bojxona tartibotlari, logistika va marketing strategiyalarining muvofiqlashtirilgan holda olib borilishi samaradorlikni oshirishda qanday rol o'ynashi ko'rsatib bergan [6].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot metodologiyasi PEST tahlil yondashuviga asoslanib, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatiga ta'sir etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarni tizimli baholashni o'z ichiga oldi. Ma'lumotlar davlat statistika organlari, hukumat qarorlari, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hisobotlari va amaldagi

normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida yig'ildi. Analitik-uslubiy yondashuv sifatida komparativ tahlil, tendensiyalarni baholash va ekspert mulohazalaridan foydalanildi, bu esa tashqi iqtisodiy faoliyatning joriy holatini hamda rivojlanish drayverlarini aniq aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda PEST tahlili asosida omillar kompleks baholaymiz. Tahlil mamlakatning tashqi savdo salohiyatiga ta'sir qiluvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik determinantlarning real sektordagi ko'rinishini ochib beradi. Ushbu yondashuv orqali tashqi iqtisodiy faoliyatning joriy holati, rivojlanish drayverlari va cheklovlari aniq ko'rsatilib, davlat siyosati va bozor mexanizmlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik aniqlanadi. (1-jadval)

1-jadval.

PEST tahlili Jadval ko'rinishida

Omil	Tavsif	O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatiga ta'siri
P Siyosiy	Mintaqaviy hamkorlik, xalqaro integratsiya siyosati, bojxona va tarif siyosati, siyosiy barqarorlik	Eksport-import oqimlarini barqarorlashtiradi, xorijiy investorlar ishonchini oshiradi, savdo kelishuvlarini kengaytiradi
E Iqtisodiy	Makroiqtisodiy barqarorlik, valyuta kursi, inflyatsiya, transport-logistika xarajatlari, investitsion muhit	Tovarlar raqobatbardoshligiga ta'sir qiladi, tashqi savdo hajmini belgilaydi, iqtisodiy integratsiya tezlashadi
S Ijtimoiy	Demografik tarkib, mehnat resurslari, iste'mol talabining o'zgarishi, migratsiya jarayonlari	Kadrlar salohiyatini oshiradi, yangi bozorlar uchun iste'mol talabi shakllanadi, xizmatlar eksporti rivojlanadi
T Texnologik	Raqamli transformatsiya, logistika tizimida IT yechimlari, eksport jarayonlarining elektronlashtirilishi	Savdo tezligi oshadi, tranzit salohiyati kuchayadi, eksport diversifikatsiyasi va samaradorlik ortadi

Yuqoridagi jadvalga asosan O'zbekistonning so'nggi yillardagi ochiq tashqi siyosati, qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan strategiyasi tashqi iqtisodiy faoliyatni sezilarli faollashtirmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Jahon savdo tashkiloti va Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorlik formatlaridagi ishtirok savdo barqarorligini mustahkamlaydi. Siyosiy barqarorlik xorijiy investitsiyalar kirib kelishi uchun

ishonchli muhit yaratib, eksportni ko‘paytirish va yangi bozorlarni ochish imkonini kengaytiradi.

PEST tahlili iqtisodiy omillarning tashqi iqtisodiy faoliyatning jadallashuvida markaziy o‘ringa ega ekanini ko‘rsatadi. Makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiyaning me‘yoriy boshqarilishi va valyuta bozorining liberallasuvi eksport-importni rag‘batlantirmoqda. Transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi temiryo‘llar, avtomobil yo‘llari va logistika markazlari eksport mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirib, tashqi bozorlar bilan aloqalarni samarali yo‘lga qo‘yishga xizmat qilmoqda. Iqtisodiy omillar mamlakatga investitsiya oqimini oshirish orqali tashqi iqtisodiy aloqalarning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston aholisi tarkibining yoshligi, mehnat resurslarining yuqori salohiyati tashqi iqtisodiy faoliyat uchun muhim ustunlik hisoblanadi. Yosh demografiya xizmatlar eksporti, IT-outsourcing, transport-logistika va turizm sohalarida yangi imkoniyatlar yaratadi. Jamiyatda tadbirkorlik faolligining ortishi, iste‘mol madaniyatining yangilanishi va xalqaro standartlarga mos talablarning shakllanishi tashqi bozorlar bilan integratsiyani jadallashtiradi. Ijtimoiy omillar xizmatlar eksporti va inson kapitali orqali raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.

Texnologik rivojlanish tashqi iqtisodiy faoliyat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, eksport jarayonlarining elektronlashtirilishi, bojxona amaliyotlarining raqamlashtirilishi va logistika tizimlaridagi IT yechimlari savdo samaradorligini oshirmoqda. Raqamli transformatsiya tranzit salohiyatini kuchaytiradi, mahsulotlarni global zanjirlarga tezroq integratsiya qilish imkonini yaratadi. Export ERP, onlayn sertifikatlash tizimlari, “yagona darcha” tamoyili kabi raqamli mexanizmlar savdo xarajatlarini kamaytirib, raqobatbardoshlikni sezilarli oshiradi. Texnologik omillar eksport diversifikatsiyasini jadallashtirib, tashqi iqtisodiy faoliyatning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati so‘nggi yillarda jadal transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Siyosiy barqarorlik, xalqaro hamkorlikning kengayishi va integratsion jarayonlarda faol ishtirok mamlakatning global iqtisodiy makondagi o‘rnini mustahkamladi. PEST tahlili siyosiy omillar xorijiy investitsiyalar oqimi, eksport bozorlarini kengaytirish va savdo jarayonlarining barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynashini tasdiqladi.

Iqtisodiy omillarni baholash shuni anglatadiki, makroiqtisodiy islohotlar, valyuta liberallasuvi, logistika infratuzilmasining modernizatsiyasi tashqi savdo salohiyatini kuchaytirayotgan asosiy drayverlardir. Bozor mexanizmlarining erkinlashuvi, eksportga ixtisoslashgan ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi mamlakatning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini yaxshilab, eksport-import balansining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy va texnologik omillar

esa tashqi iqtisodiy aloqalarning uzoq muddatli istiqbolda barqaror bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Yakuniy xulosalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Raqamli transformatsiya, mehnat resurslarining yuqori salohiyati, yosh demografiya va tashqi bozorlarga mos talablarning shakllanishi mamlakatning yangi iqtisodiy o'sish nuqtalarini belgilab bermoqda. Strategik siyosiy qarorlar, modernizatsiya qilingan iqtisodiy infratuzilma va texnologik yangilanishlar uyg'unlashganda, O'zbekistonning global savdodagi raqobatbardoshligi yanada oshadi.

Eksportni diversifikatsiya qilish va yangi bozorlar uchun institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish. Xususan, eksportchi korxonalar uchun logistika xarajatlarini kamaytiruvchi subsidiya mexanizmlarini joriy etish va xalqaro sertifikatlash jarayonlarini soddalashtirish tavsiya etiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni raqamlashtirishni chuqurlashtirish. Bojxona amaliyotlarini to'liq avtomatlashtirish, "yagona darcha" tizimini kengaytirish va eksport-import operatsiyalarida real vaqt monitoringini joriy qilish savdo samaradorligini sezilarli oshiradi.

Inson kapitalini rivojlantirish va tashqi iqtisodiy soha mutaxassislarini tayyorlashni kuchaytirish. Xalqaro savdo, logistika, bojxona ishi va global bozor tahlili bo'yicha malaka oshirish dasturlarini kengaytirish tashqi iqtisodiy faoliyatning zamonaviy talablariga javob beruvchi kadrlar ta'minotini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-6155-sonli 03.02.2021 yildagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5260791>

[2] O.Shodiyev, "Development of the foreign economic activity of the republic of Uzbekistan with the help of foreign investments", Journal of European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, ISSN: 2750-8587, Volume 04 Issue 05, <https://eipublication.com/index.php/eijmrms/article/download/1803/1703/2270>

[3] N.T.Talipova, L. M.Sayfullovna and L.N.Khazratkulova, "Evolution of Innovative Development of Foreign Economic Activity of The Republic of Uzbekistan", In The 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS 22), December 15, 2022, Tashkent, TAS, Uzbekistan. ACM, New York, NY, USA, 13 Pages. <https://doi.org/10.1145/3584202.3584211>.

[4] M.Г. Isayev va O.A. Torishniy, "State regulation of foreign economic activity and its impact on the economic development of the region", Экономика и

предпринимательство, June 2020, <https://www.researchgate.net/publication/382438285> State regulation of foreign economic activity and its impact on the economic development of the region.

[5] J.G'.Saidmusayev, "Tashqi iqtisodiy faoliyat tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish", Journal of Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, (E)ISSN: 2181-1784 4(10), Nov., 2024. <https://oriens.uz/media/journalarticles/13> Jasurbek Gofur ogli Saidmusayev 89-98.pdf

[6] N.B.Yahyoxonov, "Tashqi iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etishning ahamiyati", Journal of Marketing, Business and Management(JMBM)/SJIF Factor: 5.57, Volume 4, Issue 1 (June) ISSN: 2181-3000, <https://cyberleninka.ru/article/n/tashqi-iqtisodiy-faoliyatini-samarali-tashkil-etishning-ahamiyati>

[7] <https://president.uz/oz/lists/view/5110>

[8] <https://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/824>

[9] <https://uza.uz/en/posts/uzbekistan-enhances-its-role-in-the-global-economy> 714964